



ALISHER NAVOIY: INTEGRATION OF NAQSHBANDIYA IDEAS AND NATIONAL VALUES IN PHILOSOPHICAL HERITAGE

Markhabo Davlatovna Pardaeva

*Professor at Bukhara State Technical University
Bukhara, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: Alisher Navoi, Bahouddin Naqshband, Naqshbandiya, Sufi philosophy, national values, syncretism, integration, spiritual heritage, personal perfection.

Received: 08.10.25

Accepted: 09.10.25

Published: 10.10.25

Abstract: This article analyzes the fundamental ideas of the Naqshbandi tariqa in the philosophical heritage of Alisher Navoi and their integration with national values. Navoi's works clearly reflect the profound influence of Sufi philosophy, particularly the views of Bahouddin Naqshband. The study scientifically substantiates the significance of syncretism—harmonious integration of religious, moral, and philosophical values—in enriching the national spiritual heritage. Moreover, the article highlights the role of Naqshbandi ideas in Navoi's works in shaping spirituality, personal perfection, and national identity. Historical-philosophical sources, as well as methods of comparison and analysis, have been applied in the research.

ALISHER NAVOIY FALSAFIY MEROSIDA NAQSHBANDIYA G'OYALARI VA MILLIY QADRIYATLAR INTEGRATSIYASI

Marhabo Davlatovna Pardayeva

*Buxoro davlat texnika universiteti professori
Buxoro, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, Bahouddin Naqshband, Naqshbandiya, tasavvuf falsafasi, milliy qadriyatlar, sinkretizm, integratsiya, ma'naviy meros, inson kamoloti.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiy falsafiy merosida Naqshbandiya ta'limotining asosiy g'oyalari va ularning milliy qadriyatlar bilan integratsiyasi tahlil qilingan. Navoiy ijodida tasavvuf falsafasi, xususan, Bahouddin Naqshband qarashlarining chuqur izlari ko'rinadi. Maqolada milliy ma'naviy merosimizni

boyitishda sinkretizm hodisasi, ya'ni diniy, axloqiy va falsafiy qadriyatlarning uyg'unlashuvi ilmiy jihatdan asoslangan. Shuningdek, Navoiy asarlarida Naqshbandiya g'oyalarining inson kamoloti, ma'naviyat va milliy o'zlikni shakllantirishdagi o'rni yoritilgan. Tadqiqotda tarixiy-falsafiy manbalar, taqqoslash va tahlil usullari qo'llanilgan.

АЛИШЕР НАВОИЙ: ИНТЕГРАЦИЯ ИДЕЙ НАКШБАНДИИ И НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В ФИЛОСОФСКОМ НАСЛЕДИИ

Мархабо Давлатовна Пардаева

*Профессор Бухарского государственного технического университета
Бухара, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Алишер Навои, Бахауддин Накшбанд, накшбандия, суфийская философия, национальные ценности, синкретизм, интеграция, духовное наследие, совершенствование личности.

Аннотация: В данной статье анализируются основные идеи учения накшбандийского тариката в философском наследии Алишера Навои и их интеграция с национальными ценностями. В творчестве Навои ярко проявляются глубокие следы суфийской философии, в частности взглядов Бахауддина Накшбанда. В статье научно обосновано значение синкретизма — гармоничного сочетания религиозных, нравственных и философских ценностей — в обогащении национального духовного наследия. Кроме того, показана роль идей накшбандий в произведениях Навои в формировании духовности, личностного совершенствования и национальной идентичности. В исследовании использованы историко-философские источники, методы сравнения и анализа.

Kirish. Yangi O'zbekiston sharoitida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarning pirovard natijasi yoshlarning ongu-shuuri, ma'naviyatiga, ijtimoiy faolligiga bog'liqdir. Tarbiya shunday bir murakkab jarayonki, uning asosini pand-nasihatlar, o'gitlar tashkil qiladi. Bularning barchasi ma'naviy merosimiz bisoti hisoblanib, asrlar osha o'zining qimmatini saqlab qoladi va sayqallashadi.

Bugun shiddat bilan o'zgarayotgan dunyoda manfaatlar to'qnashuvi kuchaymoqda. Insoniyat uchun beqiyos yangi imkoniyatlar bilan birga kutilmagan muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Milliy o'zlik va ma'naviy qadriyatlarga qarshi tahdid va xatarlar tobora ortib

bormoqda. Ijtimoiy-ma'naviy muhitni ilmiy asosda tahlil qilishni davrning o'zi talab etmoqda. "Agar kimdir, ma'naviyat masalasi – bu faqat Ma'naviyat markazi yoki tegishli vazirlik va idoralarning ishi, deb o'ylasa, xato qiladi. Bularning barchasi oldimizda turgan eng asosiy, eng muhim vazifalardan biridir... Biz yaratayotgan Yangi O'zbekistonning mafkurasi ezgulik, odamiylik, gumanizm g'oyasi bo'ladi. Biz mafkura deganda, avvalo, fikr tarbiyasini, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasini tushunamiz. Ular xalqimizning necha ming yillik hayotiy tushuncha va qadriyatlariga asoslangan" [1].

Adabiyotlar tahlili. Alisher Navoiy asarlari ("Xazoyin ul-maoniy", "Mahbub ul-qulub", "Nasoyim ul-muhabbat") — bevosita falsafiy va tasavvufiy g'oyalarni o'zida mujassam etib, Naqshbandiya ta'limoti bilan uzviy bog'liq. Ayniqsa, "Nasoyim ul-muhabbat"da Naqshbandiya shayxlari, ularning ma'naviy ta'limoti haqida qimmatli ma'lumotlar beriladi.

Najmiddin Komilov, Abduqodir Hayitmetov, Ozod Sharafiddinov kabi olimlarning ilmiy izlanishlarida Navoiy falsafiy qarashlari, tasavvufiy manbalar bilan aloqasi va milliy qadriyatlarga singdirilishi yoritilgan.

Shavkat Salimov, B. To'xtiyev, N. Negmatullayevalarning so'nggi yillardagi tadqiqotlari Navoiy asarlarida sinkretik tafakkur va tasavvuf falsafasi o'rnini ilmiy asosda tahlil qiladi.

Mahalliy manbalar Navoiy va Naqshband qarashlari uyg'unligini milliy ma'naviy merosimizni boyituvchi asosiy omil sifatida ko'rsatadi.

E. E. Bertels "Навоий и Суфизм" asarida Navoiy ijodining tasavvufiy ildizlarini ko'rsatib, uning Naqshbandiya bilan bog'liqligini ilmiy asoslab bergan. A. N. Samoylovich, V. M. Jirmunskiy ishlarida Navoiy ijodi Sharq falsafasi va tasavvufiy an'analar kontekstida o'rganilgan. S. Vigotskiyning madaniyat va tafakkur nazariyalari Navoiy merosini milliy qadriyatlar rivoji bilan bog'lab o'rganishda metodologik ahamiyatga ega. S. N. Grigoryan va boshqa sharqshunoslarning tadqiqotlari Navoiy merosidagi falsafiy qarashlarning ijtimoiy, axloqiy va diniy sinkretizm xususiyatlarini ochib beradi.

Rus olimlari tahlilida Navoiy merosi ko'proq Sharq falsafasi va adabiy merosning umumiy kontekstida talqin qilinadi, sinkretizm masalasi esa kengroq falsafiy yo'nalishda baholangan.

Annemarie Schimmel ("Mystical Dimensions of Islam") — tasavvuf, xususan, Naqshbandiya ta'limoti va uning musulmon dunyosidagi o'rnini haqida keng qamrovli tahlillar beradi. Bu yondashuv Navoiyning tasavvufiy qarashlarini global kontekstda tushunishga imkon beradi. Carl W. Ernst va William Chittick tasavvufiy falsafaning ontologik va g'noseologik masalalarini izohlar ekan, Navoiy merosini anglash uchun muhim metodologik manba bo'lib xizmat qiladi. G. E. Von Grunebaum va Ira Lapidusning musulmon jamiyatlaridagi sinkretizm va diniy qadriyatlar uyg'unligi haqidagi tahlillari Navoiy – Naqshband sinkretizmini o'rganishda nazariy asos sifatida qo'llanilishi mumkin.

Xorijiy manbalar Navoiy va Naqshbandiya aloqalarini global tasavvufiy va ma'naviy kontekstda baholab, ularning milliy qadriyatlar rivojida rolini keng falsafiy nuqtai nazardan ko'rsatadi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki:

- Mahalliy olimlar ko'proq Navoiy va Naqshband qarashlarining milliy qadriyatlar rivojiga ta'sirini yoritadi.

- Rus olimlari ilmiy merosida Navoiy ijodi Sharq falsafasi doirasida umumlashtirilib, sinkretizm keng falsafiy nuqtai nazardan ko'riladi.

- Xorijiy tadqiqotchilar esa tasavvuf falsafasining universal ahamiyatini ko'rsatib, Navoiy merosini global ilmiy diskursga olib kiradilar.

Metod va metodologiya. Maqola metodologiyasi Sharq falsafasi, tasavvuf ta'limotlari va milliy qadriyatlarni o'rganishning umumiy ilmiy prinsiplari hamda falsafiy-nazariy yondashuvlarga tayanadi. Tadqiqot quyidagi konseptual asoslarda olib borildi:

- Dialektik yondashuv – Navoiy va Naqshband qarashlaridagi diniy, axloqiy va falsafiy qadriyatlarning o'zaro aloqadorligi va rivojlanish jarayonini tahlil qilish.

- Sinkretik yondashuv – diniy-ma'naviy va falsafiy qarashlarning uyg'unlashuvini milliy qadriyatlar bilan integratsiya jarayonida o'rganish.

- Tarixiy-falsafiy tahlil – Navoiy asarlarida Naqshbandiya g'oyalarining shakllanishi, rivoji va davr konteksti bilan bog'lab ko'rib chiqish.

- Komparativ metod – Navoiy merosidagi tasavvufiy tushunchalarni boshqa sufiya ta'limotlari, jumladan, Yassaviya va Qodiriya bilan taqqoslash.

Maqola quyidagi metodlardan foydalanishga asoslanadi:

- Matnshunoslik tahlili – Navoiy asarlaridagi Naqshbandiya g'oyalarini badiiy-falsafiy mazmun jihatidan o'rganish.

- Falsafiy-hermenevtik metod – matn va tushunchalarni ma'naviy kontekstda talqin qilish.

- Tarixiy-komparativ metod – Navoiy qarashlarini boshqa tarixiy-falsafiy manbalar bilan qiyoslash.

- Struktural-tahliliy metod – Naqshbandiya g'oyalarining milliy qadriyatlar tizimidagi o'rnini aniqlash va ularning inson kamoloti bilan bog'liqligini ochib berish.

- Sistemali yondashuv – Navoiy merosidagi diniy, axloqiy va falsafiy qarashlarning yaxlit tizim sifatida qaralishi.

Muhokama. Inson hech qachon komil bo'lib tug'ilmaydi yoki boshqacha qilib aytganda, birdaniga kamolotga erishmaydi. Komillikka erishish uchun inson ketma-ket kamolot bosqichlarni bosib o'tmog'i kerak. Tasavvufda bu kamolot bosqichlari maqomot, ya'ni maqomlar deb

yuritiladi. Mutafakkir Navoiy o'z asarlarida Bahouddin Naqshband asoslagan naqshbandiya kamolot yo'li maqomlari haqida ma'lumot bergan.

Naqshbandiya ta'limotining o'ziga xosligi shundaki, bunda tarkidunyochilik, uzlatda umrguzaronlik qilish qoralanadi. Naqshbandiyada kishilarning ma'naviy axloqiy kamoloti, foniyl dunyo huzur-halovatlarining quliga aylanmaslik, mol-u mulk ramziga sajda qilmaslik, boriga sabr-qanoat bilan yashash, undan ortig'idan umidvor bo'lmaslik, manmanlikka chek qo'yish, boshqacha qilib aytganda, qalbni keng tutish, komil inson darajasiga ko'tarilish, axloqiy yetuklikni har qanday narsadan ustun qo'yish ustuvor maqomga ega bo'lib bordi.

Naqshbandiya tariqatida dunyoparastlik, nafsparastlik, zohirparastlik, kibr, riyo qoralanadi, ularning aksi bo'lgan, faqirlik fazilatiga katta urg'u beriladi. Albatta, bu barkamollik darajasidir. Demak, faqr-u fano haqiqatga yetmoq hisoblanadi. Qur'oni Karimda banda Alloh oldida yo'qchil ekanligi ifodalangan, ya'ni faqr bandaning, boylik Allohning sifati ekanligi aytib o'tilgan: "Ey insonlar! Sizlar Allohga muhtojdirlar. Allohning o'zigina (barcha odamlardan) behojat va (barcha) maqtovga loyiq zotdir" ("Fotir" surasi, 15-oyat) [13]. Naqshbandiya tariqatida faqr juda katta ahamiyatga ega. Mazkur tariqat murshidlari faqr inson ma'naviy kamolotining muhim nuqtasi deb hisoblaganlar. Shuningdek, naqshbandiya tariqati vakillarining o'zlari ham hayotlari davomida faqr tamoyillariga rioya qilib yashashga harakat qilganlar. Bu xususda juda ko'p maqomotlarda misollar keltirilgan. Mutafakkir Navoiyning faqr xususidagi fikrlarini o'rganish uchun tasavvuf ta'limoti vakillarining ushbu xususdagi qarashlarini o'rganish muhimdir.

Xalifa Xoja Alouddin Attor ta'kidlashicha, ustoz hazrat Bahouddin "bizning sulukka kirishning birinchi sharti faqr" [6] deb aytgan ekanlar. Demak, naqshbandiyalar talqinidagi faqr juda keng ma'noli bo'lib, komillikning eng oliy sharti hisoblangan.

Hazrat Navoiy "Nasoyim ul-muhabbat"da Jaloliddin Rumiylning bir darveshning faqr nima degan savoliga bergan javobini keltiradi:

Faqr – javhardir, faqrdan boshqasi arazdir,

Faqr – shifodir, faqrdan boshqasi bemorlikdir.

Olamning barchasi nayrang va g'ururdir,

Faqr esa olamdagi sir va maqsaddir [3].

Xulosa shuki, naqshbandiyada faqr Allohga yaqinlashishning oliy darajasi sifatida talqin qilingan. Tasavvuf har bir narsaning qarama-qarshi, teskari jihatlar mavjudligini, hayot doim kurashlardan iborat ekanligini, bu olamning boqiy emasligini tushuntiradi.

Tasavvuf ta'limotida komil insonga juda katta talablar qo'yilgan. Bu rutbaga yolg'iz Muhammad payg'ambar loyiq ko'rilgan. Shu sababdan, komil inson haqidagi nazariya ideal ta'limotga aylangan edi. "Ibn Arabiy, Shayx Omiliy va Abdulqodir Giloniy qarashlariga diqqat qilinsa, komil inson bir kayhoniy vujud bo'lib ko'rinadi, uning sifatlari yerdagi foniyl odamlar

sifatiga, aniq shaxslar xislatiga o'xshamaydi. Unda biz jamiki g'ayritabiiy kuchlarning majmuini mushohada etganday bo'lamiz... Komil inson bular nazarida olamlarni egallagan, olamlarga, barcha jonzotlar va insonlarga ta'sir eta oladigan, insoniyatni boshqaradigan bir Buyuk ruhdur. Ma'naviy-Aqliy qudratdir" [8]. Komil inson ta'limoti vakillaridan Aziziddin Nasafiy bunday qarashlarni hayotga yaqinlashtirdi. Buning natijasida komil inson haqiqiy odamga aylandi. Nasafiy fikricha, "To'rt narsa – yaxshi so'z, yaxshi ish, yaxshi xulq va ma'rifatda kamolga yetgan har qanday kishi komil inson atalishiga munosib" [5]. Bu fikrdan haqiqat shuki, komil inson bo'lish uchun hammada imkoniyat mavjud. Faqat shu maqsad yo'lida harakat kerak. Muhammad alayhissalom komillar komili bo'lib qolaveradi.

Hazrat Navoiy ustoz mutafakkir Abdurahmon Jomiy asarlarida dunyo hoy-u havaslaridan yiroq bo'lish, asl insoniylik darajasida umrguzaronlik qilish xususida fikr yuritgan. Jomiy nazdida asl insoniylik bu faqr gavhariga yetishmoqlikdir.

Naqshbandiya tasavvufiy ta'limotida faqr hozirgi kun uchun ham kerak bo'lgan insonlar axloqidagi samimiylilik xislatlarini qaror toptirishda muhim tarbiya vositasidir. "Faqr" so'zi hazrat Navoiy asarlarida 440 marta qo'llanilgan. Shundan, "Xazoyin ul-maoniy"da 192 marta, "Badoye' ul-bidoya"da 114 marta, "Navodir un-nihoya"da 76 marta, "Ilk devon"da 58 marta uchraydi. Hazratning faqr masalasiga bunchalik ko'p e'tibor berishiga naqshbandiya ta'limotining ijtimoiy muhit muammolarini yechishga bo'lgan intilishi ham ta'sir qilgan. Chunki u yashagan davrda faqr ma'naviyat asosi sanalgan. Faqr – bu Allohga muhabbat sifatida ham qaralgan. Demak, Navoiy nazdidagi faqr naqshbandiyadagi "Dil ba Yor-u, dast ba kor" shioriga to'liq mos keladi. Chunki hazrat Navoiy faqr talqinida taqvdorlik, nafsni tiyish, Allohga muhabbat, halol luqma, mehnatsevarlik kabi olijanob fazilatlarni tushungan. E'tirof etish kerakki, bu fazilatlar Yangi O'zbekistonda yosh avlod tarbiyasida ham g'oyatda ahamiyatlidir.

Naqshbandiya ta'limotining asosiy talablari bo'lgan nafsni tiyish, halol luqma, insof, vijdon, diyonat kabi tushunchalar bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, buning natijasida farovon hayotga eltuvchi bag'rikenglik, sabr-qanoatlilik, mehnatsevarlik, mehribonlik kabi insonparvarlik fazilatlari shakllanadi. Hozirgi kunda korrupsiya, ya'ni mehnatsiz daromadga ega bo'lishga intilish jamiyat va davlat rivojida asosiy illat sifatida namoyon bo'lmoqda. Mamlakatimizda unga qarshi kurashning huquqiy bazasi takomillashmoqda. Fikrimizcha, bunday illatni oldini olishning eng to'g'ri va maqbul usuli naqshbandiya ta'limotining nafsni tarbiyalash, halol luqma talabida bo'lish, mehnatsevarlik g'oyalarini o'ziga asos deb bilgan ma'naviy tarbiyani kuchaytirishdir. Ma'naviy tarbiyaning asosi esa milliy-ma'naviy merosdir.

Naqshbandiya ta'limotida hayotda inson ikki holatda bo'lishi, ya'ni g'aflat va hushyorlik holatlarida ekanligi aytiladi. Bahouddin Naqshband o'z ta'limotida insonni kamolotga undashdan maqsad uni g'aflatdan uyg'otib, mushohada maydoniga kiritish deb ta'kidlaydi. G'aflat holati

deganda naqshbandiyada vaqtни behuda o'tkazish, g'iybat, tuhmatga sarflash, sarxushlik, g'iyohvandlik holatida bo'lish, umrni qadrlamaslik tushuniladi. Demak, naqshbandiya ta'limoti hushyorlik va ogohlikka da'vat etib, hayotning har lahzasi, onini g'animat bilishni o'rgatadi.

Hazrat Alisher Navoiy "Nasoyim ul-muhabbat" asarining kirish qismida faqr maqomidagi kishilarning fe'llari xususida fikr yuritadi. Ularning fe'llariga xos bo'lgan muhim jihat ular hech narsani hech kishidan ayamaslar, deb ta'kidlaydi. Demak, bunda faqirning o'zlik bilan munosabati mavjud. Solik o'z o'zligini faqr yo'li bilan yo'qotishga erishar ekan. Komillik yo'li nafsni yengishdan boshlanadi. Tasavvufda tubanlikka undovchi nafs – nafs ammora turli nomlar bilan ataladi. Nafs ammora – kofir, dushman, Dajjol, dev kabi sifatlar bilan qoralanadi. Bu o'rinda Qur'oni Karimdan Yusuf alayhissalomning quyidagi fikrlarini keltirish joizdir: "Men nafsimni oqlamayman. Chunki nafs – agar Parvardigorning o'zi rahm qilmasa, albatta, barcha yomonliklarga boshlaguvchidir" [9]. Nafs ammora hukmida bo'lgan kishilar g'aflat holatidagi kishilardir.

Demak, nafs inson uchun zo'ravon kuch. U insonning o'z menligidir. Agar u tarbiya qilinmasa, insonni ich-ichidan yemiradi. Navoiy hazratlari ham nafs ammora xususida to'xtalib "G'aroyib us-sig'ar"da shunday bayt bitganlar:

Bo'lub nafsing'a tobe', band etarsen tushsa dushmanni,
Senga yo'q nafsdek dushman – qila olsang, ani qil bandi.

Tasavvuf she'riyatida dunyo qari kampirga, bevafo ma'shuqaga, ishvagar kelinchakka o'xshatiladi. Navoiy nafsning – dunyo – kelin kabi maftunkor, ammo zolim va makkor ekanligini, er kishi undan o'zini yiroq tutishi, undan voz kechishi kerakligi to'g'risida ogohlantiryapti.

Naqshbandiya tariqatining asosi bu zikri xufiya bo'lib, zikri xufiya o'zlik bilan uzviy bog'liqdir. Bu xususda professor N.Komilov "Bahouddin Naqshband ta'lim beradilarki, solik hamisha o'z botiniy ahvolining tahqiqi payidan bo'lsin, nazorat va hifz-u hisobni tekshirib turishni kanda qilmasin. Alouddin Attor pirlarining fikrini davom ettirib, xatar botinda o'rnashib qolmasligi uchun, ya'ni dunyo mehri dilni band etmasligi uchun o'zini kuzatishi, nafas orqali bo'shatib iroda-ixtiyor qaysi tomonda ekani ma'lum bo'ladi. Kishi qanchalik botinga safar qilsa, shuncha o'zini anglaydi, zotan, o'zingga ketish – o'zidan ketish (o'zini tark etish) demak. Va ayni paytda bu o'zingga qarab borish hamdir. Chunki o'zlikni tark etmoq – o'zini tanimoqdir. O'zingdan begonav-u Haqqa oshnolik, o'zidan g'oyib-u Haqqa hozirlik shu taxlit qo'lga kiritiladi". Demak, shu tariqa nafs va dunyo talabidan qutulgan solik fanoga erishadi.

Tasavvuf falsafasida aksariyat hollarda uchrab turadigan tushunchalar, iboralarni aynan tushunib talqin qilmasdan, ularni ramziy obrazlar deb faraz qilish maqsadga muvofiqdir. Insonning haqiqatga erishuvi his-tuyg'ularning tug'yon urishi holatini mastlik, sarxushlik deb ham aytiladi. May bilan oshno bo'lish, mayni kanda qilmaslik, sarxush bo'lish tasavvuf ta'limoti vakillari

tomonidan – ichimlik – og‘uga qul bo‘lish, bachkana qiliqlar sohibiga aylanish, kun bilan tunning farqiga bormaslik ma’nosini emas, aksincha, Allohga bo‘lgan ilohiy ishqdan bahramand bo‘lish, uning visoliga yetish maqsadida o‘rtanib-yonish, Undan o‘zga narsaga topinmaslik, Undan boshqani o‘ziga aslo do‘st bilmaslikni anglatadi.

Bahouddin Naqshband tomonidan kiritilgan “Vuqufi qalbiy”da inson o‘z qalbidan ogoh bo‘lishi va qalbi doimo Alloh nazarida bo‘lishi inson kamolotiga erishish uchun muhim hisoblanadi. Naqshbandiyadagi ushbu tamoyilni hazrat Navoiy “Hayrat ul-abror” asarida inson ko‘ngli bilan insondir, deya tushuntiradi. Navoiy fikricha, qalb – ko‘ngil go‘yo bir idish. Inson umrining ma’nosi ana shu idishni nimalar bilan to‘ldirishiga bog‘liqdir. Mutafakkir ko‘ngilni to‘ldirishi mumkin bo‘lgan may turlarini sanab o‘tadi. Bular iymon, islom, adolat, karam, (saxovat), hayo, adab, qanoat, sidq-u vafo, ishq, rostgo‘ylik, ilmdir.

Qanoat – faqirlik yo‘lidagi oliy fazilatlardan biridir. Bu xususda mutasavviflar o‘z fikrlarini bildirganlar. Jumladan, Xoja Ahror Valiyning ta’rifiga ko‘ra, inson “odami nusxai jomi’a turur, ondog‘kim, malakiy sifatleri bor turur va sab’iy va bahimiy sifatlardan ham xoliy ermastur” [7]. Buning ma’nosi shuki, insonda ham malakiy – farishtalarga xos sifatlar, shuningdek, yirtqich hayvonlar kabi nafs illatlari “nusxai jome” ham bo‘ladi.

Tasavvufda qanoatning mazmuni:

Birinchidan, solik uchun Allohdan keladigan fayz yetarli bo‘lishi;

Ikkinchidan, boshqa dunyo ne’matlari solik uchun keraksiz bo‘lishi;

Uchinchidan, dunyo ne’matlariga intilmasligi lozim, aks holda, bu ta’magirlikka olib keladi.

Hazrat Navoiy fikricha, qanoat shunday bir buyuk fazilatki, unga ergashgan inson ham Alloh, ham xalq oldida aziz bo‘ladi. Navoiy qanoatni buloqqa, mevali daraxtga, xazinaga qiyoslaydi, uni ta’magirlikka qarshi qo‘yadi:

Har kimning agar qanoatga nisbati bo‘lsa,

Barcha kishilar o‘rtasida izzatli va hurmatli bo‘lur.

Kimki tama-yu hirs bilan ulfat bo‘lsa,

Yaxshi-yomon oldida xor bo‘lur va nahs ko‘rinur [11].

Mutafakkir qanoatni sharaflar ekan, bu xislatga ega bo‘lgan insonning har taraflama afzalligini uqtirib, ushbu fazilat baxt-saodatga erishishning kaliti, insonning ziynati ekanligini, u xavf-xatarlar, turli illat va balo-yu ofatlardan saqllovchi, odamni xoru zorlik va jabr-zulmdan muhofaza qiluvchi katta kuch ekanligini ta’kidlaydi. Mutafakkir “Mahbub ul-qulub” asarida qanoatni insonparvarlikning ajralmas bo‘lagi sifatida ta’riflab, ta’magirlikning odamiylikka yot illat ekanligi to‘g‘risida fikr bildiradi. “Qanoat, – deydi alloma, – tortinchoqlikning negizidir, sharaf va izzatning tantanasidir. Qanoatli qashshoq – badavlatdir va shoh bilan gadoyga ishi tushmaydir. Tama’xo‘rlikning dalili; davlatli tama’gir – xor va pastkashdir.

Kimiki tama' bilan ola bilar, lekin olmas, tama'sizlik saxiylikdan hech qolishmas. Bu xildagi saxiylar yaxshilik qiluvchi, tama'gilar esa jirkanchlikda sudraluvchidir".

Naqshbandiya ta'limotida asosiy tushunchalardan yana biri Alloh rizoligi uchun harakat qilishdir. Rizo – Allohning har qanday sinovlariga, boshga tushgan har qanday qiyinchilikka rozi bo'lish, bundan isyon qilmaslik, xafa bo'lmaslikdir. Hazrat Navoiy tasavvufda solikning rizoligi xususida shunday deydi:

Kim faqr talab qilsa fanodur anga shart,

Boshiga nekim kelsa rizodur anga shart [10].

Bundan ma'no shuki, naqshbandiyada inson hayoti davomida, komillikka erishish yo'lida har qanday mashaqqatni yengib o'tishi, buning uchun taqdiridan nolimasligi, Qur'on va Hadislarda keltirilgan Allohning taqdiriga rozi bo'lishi tushuniladi. Darhaqiqat, Alloh insonni sinovlar, qiyinchiliklar, yechib bo'lmaydigan tuyulgan masalalar bilan sinaydi. Kimlardir bu sinovlardan mardonavor, sabr-toqat, bardoshlilik ko'rsatib yengadi, kimlardir qiyinchiliklar oldida yengilib, nolib yuradi, ayrimlar esa ruhiy bosimga dosh berolmay hatto o'z joniga qasd qilishgacha borishadi. Fikrimizcha, naqshbandiya ta'limotida targ'ib qilinayotgan roziyona yashash tarzi insonga mashaqqatlarni yengib o'tishda, irodali bo'lishda katta ahamiyatga ega.

Mutafakkirning saxiylik to'g'risidagi fikrlari uning sabr-qanoat to'g'risidagi qarashlariga hamohang keladi. V.Zohidov qanoat va saxiylik Navoiy talqinida bir-birini to'ldiradigan tushunchalar ekanligini ta'kidlaydi: "...Navoiy qanoat mavhumini to'ldiradigan tushuncha, omil qilib saxiylikni, muruvvatni, himmatni, bir-biriga yordam berishni oladi, ular biri ikkinchisini to'ldiradigan kategoriyalardir. Shuning uchun ham Navoiy tushunishidagi qanoat passiv, bir tarafli bo'lmasdan, aktiv, ko'p tarafli qanoatdir, ijtimoiy ma'nodagi, tUSDagi, ommaviy mazmundagi aqliy qanoatdir, insonning faolligini istisno etmaydigan, balki shu asosga qurilgan qanoatdir, sof vijdon egalarini bir-birlariga bog'laydigandir" [14].

Alisher Navoiyning dunyoqarashini tadqiq qilgan olimlar uning saxiylik tushunchasini har tomonlama, chuqur tahlil qilganligini, uning turli jihatlarini qarab chiqqanligini e'tirof etadilar. Darhaqiqat, Navoiy saxiylikni insonparvarlik, komillikning muhim xislati deb biladi. Odamiylik insonni inson qiladigan, uni boshqa tirik mavjudotlardan ajratib turadigan nodir fazilatdir. Saxiylik esa odamiylik, insonparvarlikning tarkibiy qismidir. U asarlarida saxiylikni mard yigitga xos xislat, u hayvonlardan ana shu fazilati bilan farq qiladi, saxiylikni o'zida kasb qilish – boshga dur kabi porlab taradi degan fikrni ilgari suradi.

Hazrat Navoiy saxiylikni hammaga ham qilavermaslikni, uni haqiqiy muhtojlarga, g'arib, beva-bechoralar, benavolarga qilish zarurligini maqsadga muvofiq, deb biladi. U o'z molini behuda isrof qilayotgan, o'ziga to'q odamlarga dasturxon yozib, sovg'a-salomlar berayotgan, son-sanoqsiz yilqisi bo'lgan boy kishiga ot va sim-u zarlar hadya qilayotgan odamni qoralab, ularni

saxiy deb bo'lmashligini aytadi. Aksincha, o'ziga to'q bo'lib, birovdan biror narsa umid qilmaydigan, yoki o'zida boriga qanoat qilib yashaydigan insonni saxiy desa bo'ladi. Mutafakkir fikricha, birovlariga saxiylik qilib, keyin minnat qiladiganlarni ham saxiy qatoriga qo'shib bo'lmaydi.

Hozirgi kunda o'zini ko'z-ko'z qilib, dasturxon yozib, noz-ne'matlar bilan to'ldirib, ijtimoiy himoyaga muhtojlarni emas, balki o'ziga to'q, badavlat insonlarga ziyofat berib, o'zini saxovatpesha qilib ko'rsatadiganlar yo'q emas. Aslida bu riyo, ta'magirlik, kibr, isrofgarchilikdir. Darhaqiqat, zamondoshlarimiz orasida birovga qilayotgan yaxshiliklari, himmatlarini ko'z-ko'zlab, bu haqda ommaviy axborot vositalarida chiqishlar qiladiganlarni uchratamiz. Aytish joizki, yaxshilikni minnat qilish musulmonlikning shartlaridan biri hisoblangan sadaqa savobini yo'qqa chiqaradi, qolaversa, bunday ishlar Alloh yo'lga qilinayotganligi uchun ham sir tutilishi lozim.

Fano tasavvufda eng asosiy tushuncha hisoblanadi. Faqr yo'lining oxirgi bekati bu fano – komillikka erishish yo'lidir. Hazrat Navoiy asarlarida shukr, sabr, tavakkul, o'zlik, qanoat, rizo va boshqa tushunchalar faqr tushunchasi bilan hamohanglikda namoyon bo'ladi.

Hazrat Navoiy insonparvarlik qarashlarining muhim xususiyati shundan iboratki, alloma sabr-qanoat, mehr-muruvvat, saxovat, xayr-sadaqa, muhtojlarga yordam kabi insoniy xislatlar haqida gapirganda ularni o'zaro bog'liqlikda ko'radi, ular mazmunan bir-birini to'ldiruvchi, bir-biriga yaqin tushunchalar sifatida qaraladi.

Naqshbandiya ta'limotining asosida "Dil ba Yor-u, dast ba kor" yotadi. Bu ta'limotning hayotda qo'llanmog'i uchun bir qator qoidalar ishlab chiqilgan. Bunday qoidalarni ma'naviyat sarchashmasi deb atash maqsadga muvofiqdir.

Naqshbandiyaning o'n bir tamoyili, xususan dastlabki to'rttasi yoshlar tarbiyasida bugungi kun uchun ham dolzarbdir. "Xilvat dar anjuman" tamoyilining ma'nosi anjuman ichra xilvatda bo'lmoqdir. "Safar dar vatan", ya'ni vatan ichra sayohat qilmoqni anglatadi. "Nazar dar qadam", buning ma'nosi har qadamdan ogoh bo'lmoq, gunoh-xatolardan saqlanmoqdir. "Hush dar dam", ya'ni har nafasda hushyor turmoq.

"Anjumandagi xilvat"ning ma'nosi shundaki, insonning jamoa, odamlar ichida bo'lmog'i, boshqacha qilib aytganda, jamiyat hayotida faol ishtirok etishi nazarda tutilgan. Biroq u xilvatda yashagandek, o'zini tutishi, ya'ni ko'nglidagi mavjud sirlarini hech kimga bildirmasligi lozim. Bu sir Allohga bo'lgan muhabbatdir. "Dil bo Haq, xud bo xalq", ya'ni dil Alloh bilan, o'zing esa odamlar bilan shiori aynan shu qoidaning asosini tashkil qiladi. Ta'kidlash joizki, Navoiy muhabbatni keng ma'noda tushunadi. Uning sevgisi insonga, borliq va tabiatga hamda Allohga qaratilgandir. Bu haqda akademik V.Zohidov shunday deydi: "Navoiydagi sevgi, mahbub Navoiy tushunchasidagi eng oliy insoniy xislatlarga, sifatlarga, mohiyat va xususiyatlarga, xulqlarga, shu

xislatlarni o'zida mujassamlashtirgan odamlarga nisbatandir, shularni o'z ichiga olgandir. Bu birinchidan. Ikkinchidan, bu sevgi va mahbub mafhumining ob'ekti shunday odamlarning yashab turgan joy – makoni, ya'ni go'zal va hayotbaxsh tabiatdir. Demak, sevish – shularni sevishdir, sevgi, mahbub uchun kurash – shular uchun kurashishdir, sevgiga, mahbubga etishish – shularga etishish demakdir, shular bilan bo'lish demakdir. Shulardan ajralish sevgilidan, mahbubdan ajralish demakdir. Uchinchidan, ma'lum ma'noda va mahdud holda xudo ham sevgi va mahbub mafhumining obyektiga kiradi. U (Xudo) inson bilan tabiatga qo'shilib ketadi va ayni zamonda inson va tabiatni ardoqlash vositasiga ham aylantiriladi"[14].

Ta'kidlash joizki, naqshbandiylik tarkidunyochilik, go'shanishinlikni inkor qildi. Yuqorida ta'kidlanganidek, naqshbandiylik odamlarni faol hayot tarziga, hamjihatlikka, kasb-kor egallash, halol rizq-nasiba topishga asoslangandir. Bunday insonparvar g'oyalar naqshbandiyadagi "xafiya zikr" amaliyoti bilan uyg'unlashib "Dil ba Yor-u, dast ba kor" tamoyilining irfoniy-falsafiy asoslarini yanada mustahkamladi. Boshqacha qilib aytganda, kishini shunchaki nomigagina quruq ibodat qiluvchi (obid) emas, uni o'zini anglay olgan, Allohni unutmagan ma'naviy yetuk, shuningdek, ijtimoiy munosabatlarda faol shaxsni shakllantirish usullarini ishlab chiqdi.

Naqshbandiya tariqatida zikr muhim o'rin tutib, bu tariqat zikri xafiya asoslangan. Bunda zohiriy xatti-harakatlardan yiroq holda ma'naviy bog'lanishga asosiy e'tibor qaratiladi. Naqshbandiya tariqati, qoidalar Yevropa va Sharq olimlari tomonidan tadqiq etilgan. Tadqiqotchilar naqshbandiya tariqatini mo'tadil va ijtimoiy hayot bilan hamnafas amaliy tajriba va ta'limot sifatida tan olganlar. Shuni ta'kidlash joizki, tasavvuf va tariqatlar o'ziga xos tadqiqot, o'ziga xos yondashuvlarni talab qiladi. Biz bundan oldingi tadqiqotlarni inkor etmagan holda, naqshbandiya ta'limotida asosiy o'rin egallagan "zikr" amaliyoti va uning haqiqatlarini naqshbandiya ta'limotining targ'ibotchisi hazrat Navoiy asarlari asosida tadqiq va tahlil etishga harakat qildik.

Tasavvufning mohiyati haqiqatga erishishdir. Demak, u avvalo, shariat bosqichidan tariqat bosqichiga va tariqatdan ma'rifat bosqichiga yuksalish orqali haqiqatga tomon boradi. Shu ma'noda, haqiqatga eltuvchi ma'rifat yo'li nazariy jihatdan ishlab chiqildi. Haqiqatga yetishning har bir bosqichining o'z tamoyillari va qoidalar, odoblari kashf etildi. Bu qoidalarning ildizi, tanasi va bargi inson ma'naviyatidir.

"Hush dar dam" iborasida yana bir yashirin ma'no, vaqtning eng kichik birligi bu "dam" hisoblanadi. Hazrat Navoiy vaqtning eng kichik birligi hisoblanmish dam, yoki boshqacha qilib aytganda lahza, on, fursatga juda katta mazmun baxshida etadi.

"Nazar dar qadam" insonni komillikka yetaklovchi va salbiy illatlardan saqlovchi, himoya qiluvchi naqshbandiyona hikmatdir. Solik o'z qadamini nazoratga olishi lozim. Har bir qadamni zikr ila tashlashi kerak. Mazkur qoidaning moddiy va ma'naviy jihatlari bor. Moddiyligi shundaki,

inson qadam tashlab, atrofga boqib, haromga nazar qilib, gunohkor bo'lishi yomon oqibatlarga olib keladi. Ma'naviy jihati shundaki, solik har bir qadamda farosatdan, yo'ldan ozdiradigan narsalar bilan mashg'ul bo'lmasligi lozim. "Maqsadim – Alloh" degan shior bilan qadam bosmog'i kerak. Mana shu to'rt qoida xususida Hazrat Navoiy shunday ta'kidlaydi:

"Safar dar vatan"ning Qur'oniy asosi mavjud. "Yer yuzida sayr etib yuringlar va maxluqotlarni U zot avval boshdan qanday yaratganiga nazar solinglar"[12], – deyiladi. Buning ma'nosi shuki, inson safar qilar ekan, dunyoning turfa ekanligi, Allohning betakror ijodi uni hayratga soladi. Natijada u ongli ravishda xulosalar qila boshlaydi va o'z mohiyatini anglay boshlaydi. "Safar dar Vatan" ma'naviy-ruhoniylar safar qilishdir. Asosan, safar deganda o'z Vatanidan chiqib, sayohatga, mashaqqatli yo'lga aytiladi. Botiniylar ma'noda esa qalban ma'naviy safar qilish nazarda tutiladi. Solik botin olamiga, ya'ni odamiylar tabiatiga safar qiladi. Bu inson vujudining poklanishi, e'tiqodning mustahkamligidir. Natijada o'zaro hamjihatlik, mehr-shafqatlilik, bag'rikenglik, saxovatlilik, muruvvatli bo'lish, jamiyatning bir kichik bo'g'ini bo'lgan oila mustahkamligi uchun qayg'urish kabi umuminsoniy fazilatlarini yuksaltirish, shuningdek, jamiyatda axloqning ijtimoiylar hodisaga aylanishiga ko'maklashadi.

Alisher Navoiy Xurosondagi javonmardlik harakatining yirik namoyandasi bo'lib, tasavvuf haqida ham, xususan naqshbandiya haqida ham juda chuqur bilim sohibi hisoblangan. O'z davrining katta so'fiylari va darveshlar bilan olib borilgan ochiq muloqotlar esa shoirning tasavvuf haqidagi bilimlarini yanada boyitdi. Bundan tashqari, Alisher Navoiyning o'zi tomonidan qalamga olingan asarlari ham tasavvuf haqidagi benazir manba hisoblanadi. Zotan, hayoti davomida Alisher Navoiyning qilgan ishlari ham uning naqshbandiya ta'limoti bosh maqsadi, inson ma'naviy kamolotiga yaqqol dalil bo'ladi. Allomaning bu ta'kidlari barcha davrlar uchun ahamiyatlidir. Zero, yoshlar tahdidlarga bardoshlilik sust, taqlidga moyilligi kuchli bo'lgan demografik qatlamlardir.

Hozirgi kunda ba'zi yoshlarimiz kitob o'qish, ilm izlash o'rniga xorij "san'ati"ga taqlid qilib, kino-qo'shiqlar, bema'ni eshittirishlarni eshitib vaqtini o'tkazishni xush ko'rmoqda, hatto uni targ'ib-tashviq qilishdan ham qolishmayapti. Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "agar tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, buyuk ajdodlarimiz erishgan olamshumul yutuqlar zamirida, avvalo ona Vatanga, xalqqa xizmat qilishdek olijanob maqsad mujassam ekanini ko'ramiz. Masalan, Abu Rayhon Beruniy, Mirzo Ulug'bek singari ulug' allomalar, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo kabi shoir va mutafakkirlar, Abdulla Avloniy, Fitrat, Abdulla Qodiriydek ma'rifatparvarlar badiiy asarlarini aynan kamolot yoshida yaratganlarini hammamiz yaxshi bilamiz va bu bilan faxrlanamiz. Bizning tomirlarimizda ana shunday ulug' bobolarimizning qoni oqar ekan, ularning munosib vorislari bo'lish, ular kabi yuksak maqsadlar sari intilib yashash barchamizning ezgu burchimizdir"[2].

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiy asarlarida tavsiflangan Bahouddin Naqshband va naqshbandiya tariqatining g'oyalari Yangi O'zbekistonda Uchinchi renessans poydevorini qurish, barkamol avlodni tarbiyalashda zarur bo'lgan ma'naviy xazinadir. Alisher Navoiy asarlarida tarannum etilgan naqshbandiyona g'oyalar yosh avlodni imonli, halol-u pok, mehnatsevar, kamtarin, saxovatli, ogoh-u hushyor, bag'rikeng qilib tarbiyalashning yo'llarini o'rgatuvchi asosiy manbadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2021 yil 19 yanvar kuni ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo'yicha o'tkazilgan videoselektor yig'ilishidagi ma'ruzasidan. "Yangi O'zbekiston", 2021 yil 20 yanvar. №13 (269).

2.Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – T.: O'zbekiston, 2021. – B. 252.

3.Alisher Navoiy. Nasoyim ul-muhabbat. To'la asarlar to'plami. 10-jild. – Toshkent: G'. G'ulom nomidagi NMIU, 2013. – B. 92.

4.Alouddin Mansur. Qur'oni Karim. O'zbekcha izohli tarjima. – Toshkent: Cho'lpon, 1992. – B. 158.

5.Aziziddin Nasafiy. Zubdat ul-haqoyiq / N. Komilov tarjimasini. – Toshkent: Kamalak, 1996. – B. 51.

6.Bo'riev O. Xoja Alouddin Attor. – T.: Ma'naviyat, 1994. – B. 18.

7.Faxriddin Ali Safiy. Rashohot: (Obi hayot tomchilari) / Tabdil va so'ngso'z muallifi M. Hasaniy. – T.: Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 2003. – B. 344.

8.Komilov N. Tasavvuf. – Toshkent: Mavoraunnahr – O'zbekiston, 2009. – B. 104.

9.Navoiy, Alisher. G'aroyib us-sig'ar. MAT. T. 3. – T.: Fan, 1988. – B. 46.

10.Navoiy, Alisher. Hazoyin ul-maoniy. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. – B. 178.

11.Navoiy, Alisher. Mahbub ul-qulub. MAT. T. 14. – Toshkent: Fan, 1998. – B. 55.

12.Qur'oni Karim. Ankabut surasi, 20-oyat. / Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf ma'nolar tarjimasini. – Toshkent: Sharq, 2009. – B. 397.

13. Qur'oni Karim. Tarjima va izohlar muallifi A. Mansur. – T.: 1992. – B. 399.

14.Zohidov V. Ulug' shoir ijodining qalbi. – Toshkent: O'zbekiston, 1970. – B. 166–167.